

O'ZBEKISTONDA YOQILG'I SANOATINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA MUAMMOLARI

Nematov Shokirjon Botirboyevich

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, sanoat va ishlab chiqarishda keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti, "Biz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardayoq O'zbekistonning taqdiri va istiqboliga bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor muammolar orasida respublikaning energetika va yonilg'i mustaqilligini ta'minlash markaziy o'rinni egallab keldi.

Gap shundaki, O'zbekiston neft va gazning g'oyat ulkan resurslariga ega bo'lgani holda ularni qazib olish va qayta ishlash bilan shug'ullanmaganligi sababli o'zining neft va neft mahsulotlariga bo'lgan talablarini respublikadan paxta tolasi, rangli metallar, oltin va boshqa strategik materiallarni yetkazib berish evaziga Rossiyadan 4-5 mln tonna neft tashib keltirish yo'li bilan qoplar edi"¹¹.

Shuning bilan birga respublikamiz yoqilg'i mustaqilligiga ham erishdi. Yoqilg'i sanoatini rivojlantirish maqsadida neft va gaz sanoati hamda u bilan bog'liq bo'lgan barcha korxonalar yagona tarmoqqa birlashtirildi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning 1992-yil 8 iyundagi farmoni bilan "Neft va gaz" konserni barpo etildi. Hozirgi davrda yoqilg'i sanoati iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ro'l o'ynamoqda. Qator mamlakatlarning rivojlanishida ham yoqilg'i-energetika resurslarining ahamiyati beqiyosdir. Bugungi tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan zamonda jahon mamlakatlarining qudrati ham yoqilg'i-energetika resurslari bilan bog'liq. Respublikamiz davlat iqtisodiyoti poydevorini mustahkamlash uchun yoqilg'i-energetika sanoatini rivojlantirib, iqtisodiy mustaqillikka erishish maqsadida ishlab chiqarish tarmoqlari ixtisoslashtirildi. Yoqilg'i sanoatini rivojlantirish maqsadida mamlakatimizga xorij davlatlari tomonidan istiqbolli investitsiyalar kiritilmoqda. Yirik investitsiyalarni ham xorijdan, ham mamlakatning ichki zaxiralaridan jalb qilish, hozirgi zamon texnologiyalarini joriy etish, eng yangi jihozlarni ishga tushirish, ayniqsa, uncha katta bo'lmagan va kichik debetli konlarning faollik davrini uzaytirishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanish talab etiladi. Shundagina 2006-2007 yillar moboynida neft qazib olish jarayonida yuzaga kelgan turg'unlik holati bartaraf etiladi. Shuningdek, yoqilg'i resurslariga bo'lgan talabning oshib borayotgan bir paytda ulardan samarali foydalanish, istemolda foydalanilayotgan yoqilg'i resurslarining to'lov quvvati oshib borishini hisobga olgan holda ko'p tejamkorlikni talab etadi.

Shu bilan bir vaqtning o'zida iste'molchilarning to'lov miqdori oshib borishini, talab ham tobora ko'payib borayorganligi sababli narxlar bir tomonlama belgilab qo'yilishining amalda mavjud bo'lgan moliyaviy tartiblari qo'llanilmaydi, biroq erishilgan ustunlik mavqeidan boshqacha yo'llar bilan foydalanishga, suiste'mol qilish hollariga yo'l

¹ Ma'rifat gazetasi 2016-yil 2-mart 18 son 8-9-betlar (Karimov I. "Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi")

qo'yilmaydi, deb kafolat berishning ham iloji yo'q. Raqobat muhiti shakllantirilishida va monopoliyadan chiqarish talablarining chiqilishida ushbu jihatlar ko'zda tutilmog'i taqozo etiladi. Hozirgi vaqtda tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan dunyo mamlakatlarida yoqilg'i-energetika resurslari birinchi o'rinda turadi. Mamlakatimizda ham bunday resurslarga talab ham ehtiyoj ham kamaymaydiki, ortib boraveradi. Demak, yoqilg'i tabiiy resurslaridan samarali foydalanish talab etiladi. Lekin yaqin besh olti yil ichida mamlakatimizda neft va gaz kondensatining ulushi anchagacha kamayganligini ammo ehtiyojlarning ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu fikr-mulohazalar mavzuning dolzarbligini belgilaydi hamda uning tanlab olinishi va tadqiq etilishiga asosiy sabab bo'ldi.

Respublikamizda keyingi yillarda yoqilg'i sanoatining iqtisodiyot tarmoqlar tarkibida ahamiyati ortib borishi yaqqol ko'rinib turibdi. Lekin ushbu sanoatda yaratilayotgan resurslarning salohiyati birmuncha kamayganligi kuzatildi. Bunday muammolarni hal qilish maqsadida bir qancha loyihalar va dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Xulosa qilib aytganda yoqilg'i resurslarini iqtisodiyotdagi ahamiyatini va uning rivojlanish xususiyatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- respublikamizda yoqilg'i sanoatini rivojlanishida yoqilg'i-energetika resurslarining ro'li juda muhim ekanligi va sanoatda yoqilg'i tabiiy resurslari asosiy vosita sifatida ishlatilishi;

- Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishi (rangli va qora metallurgiya, elektr energiya, qurilish materiallari, kimyo va neft-kimyo) da yoqilg'i tabiiy resurslari muhim vositalardan biri ekanligi;

- mamlakatimizda yoqilg'i sanoatining rivojlanishida xorij mamlakatlarining tajribalari va yangi texnologiyalarini qo'llagan holda ushbu tarmoqni rivojlanishini keng yo'lga qo'yish hamda bir qator investitsiyalar orqali ko'zlangan natijaga erishish;

- respublikamiz hududlari bo'ylab yoqilg'i tabiiy resurslarining ko'plab zaxiralarini aniqlash hamda uning sanoat ahamiyatini belgilab olish, neft va tabiiy gaz tarmoqlarining iqtisodiyotimiz rivojlanishida eng muhim omil ekanligi;

- yoqilg'i sanoatini rivojlanishida neft va tabiiy gazni qayta ishlash sanoatlarining o'sib borishi hamda joylanishi, neft va gaz qazib olishda isrof bo'layotgan tabiiy resurslarni to'la qayta ishlashni yo'lga qo'yishni;

- mamlakatimizda qazib olinayotgan ko'mirning sanoatda, ayniqsa, elektr energiya ishlab chiqarish va qora metallurgiya sohasida juda muhim xom ashyo ekanligi;

Tadqiqot ishini tahlil qilish davomida O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida hamda hozirgi vaqtdagi yoqilg'i sanoati resurslari qay darajada o'sganligi yoki pasayib borish sabablari o'rganib chiqildi.

Respublikamiz neft va tabiiy gaz hamda ko'mir zaxiralariga ega. Bu resurslar afsuski tiklanmaydigan va tugaydigan resurslar hisoblanadi. Shunday ekan ushbu resurslarning umumiy geologik zaxirasini aniqlash va ulardan samarali foydalanishni

yo'lga qo'yimoq zarur. Respublikamizda yildan-yilga aholi sonining o'sib borishi va sanoat korxonalarining ko'payib borishini inobatga oladigan bo'lsak, qazib chiqarilayotgan yoqilg'i sanoati resurslari ehtiyojlarni to'la qondirolmashligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, elektr-energiya hozirgi riovojanib borayotgan jamiyatda suv va havodek zarur bo'lib, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr-energiya 55 mlrd kVt/s ni tashkil etmoqda. Ishlab chiqarilayotgan elektr-energiya uchun qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 56 % i va ko'mirning esa 85 % i ishlatilmoqda.

Respublikamizda qayta tiklanmaydigan ananaviy energiya manbalari va miqdori jahon miqyosida qaraganda ham salmoqli bo'lishiga qaramay, aholi o'sishi natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan energiya hajmining pasayishini kuzatish mumkin. Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra respublikamizda neft va gaz zaxiralari asosan 20-30 yilga aholi ehtiyojini qondirish imkoniyatiga ega. Shunday ekan qayta tiklanmaydigan ananaviy energiya manbalarining chegaralanganligi va unga bog'liq global va mintaqaviy muammolarga alohida to'xtalib o'tishimiz kerak. Masalan, mamlakatimizda tabiiy gaz va neft mahsulotlarni qazib chiqarish hajmi kamayib borayotganligi ehtiyojlarni ortib borishini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Mazkur xulosalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar belgilandi:

- bugungi kunda neft va gaz kondensat mahsulotlariga bo'lgan talabni oshib ketganligi hamda aholini toza gaz bilan ta'minlash, transport vositalarini yoqilg'i resurslari bilan ta'minlash uchun geologik qidiruv ishlarini respublikamizning markaziy va g'arbiy hududlarida kuchaytirish yangi maydonlarni aniqlash va konlarni ishga tushirish zarur;

- eski konlarni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, ulardan iloji boricha yuqori samaradorlikda foydalanishni yo'lga qo'yish lozim;

- janubi-g'arbiy Hisor va Buxoro-Xiva hududlarida neft va tabiiy gazni qazib olish jarayonida isrof bo'layotgan resurslarni to'la qayta ishlashni ta'minlash, havoga chiqarib yuborilayotgan chiqindi gazlarni qayta ishlash qurilmasini barpo etish;

- ko'mir qazib olishda yangi texnologiyani qo'llash, iste'molga chiqarilayotgan ko'mirni o'z vaqtida yetkazishni yo'lga qo'yish hamda ko'mir qazib olingan hududlarda atrof-muhitning zararlanishini oldini olish uchun o'z vaqtida karyerlarni rekultivatsiya qilishni taminlash;

- neft va tabiiy gaz zaxiralarining barqaror emasligini hisobga olgan holda bu tabiiy resurslarni o'rnini bosuvchi sintetik yoqilg'i turlarini ishlab chiqish yoki tez o'sadigan o'simlik turlarini ko'paytirgan holda yoqilg'i barqarorligini ta'minlashni yo'lga qo'yish;

- mamlakatimizga xorij texnologiyalarini keng joriy qilgan holda yoqilg'i tabiiy resurslaridan eng zamonaviy hisoblagichlar yordamida tejamkorlik va isrof qilmasdan foydalanishni keng ko'lamda amalga oshirish;

- aholi iste'moli uchun sarflanayotgan tabiiy gaz va elektr energiya mahsulotlarining to'lov muddatlarini vaqtida amalga oshirilishini yo'lga qo'yish yoki

yangi texnologiyalardan foydalangan holda daraxt va o'simlik tanalaridan biogaz ishlab chiqarish hamda arzon, sifatli yoqilg'ini aholi iste'moli uchun sarflashni yo'lga qo'yish;

- Respublikamiz hududlarida yani Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlarida elektr energiya tanqisligini bartaraf etish uchun noanaviy energiya manbalaridan foydalanishni joriy qilish, aholi yashaydigan xonadonlarni iloji boricha to'laligicha quyosh batarekalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish;

Yuqoridagi taklif va tavsiyalar mamlakatimiz ertangi kuni, istiqboli, rivojlanishida eng muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.